



O'ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING TURLANISHI

Usanova Qademay Muratbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili yo'nalishi

1-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8063430>

ARTICLE INFO

Received: 14th June 2023

Accepted: 20th June 2023

Online: 21th June 2023

KEY WORDS

Bosh, qaratqich, jo'nalish,
tushum, chiqish, o'rin,
qo'shimcha, affiks, turlanish.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida otlarning turlanishi, qiyosi, o'xshash va farqli tomonlari tadqiq etildi.

O'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ot predmet ma'nosini bildiradi. Har 3 tilda ham otning ma'nosi turli-tuman bo'lib, u jonli predmetlarni (*it-собака-iyt, mushuk-кошка-pishiq*) (*bola-ребёнок-bala, qush-nmucca-qus*), narsa, predmet va hodisalarni (*sut-молоко-su't*), (*yomg'ir-dozhd-jawin*), (*daftar-mempad-da'pter, kitob-knuzga-kitap*), (*majlis-sobranie-jiynalis*) ataydi. Har 3 tilda ham otlarning turlanishi bir-biridan farq qiladi. O'zbek tilida barcha otlar bir xilda turlanadi. Chunki kelishik affikslari doim bir shaklda bo'ladi. Rus tilida esa otlar grammatik rodiga va birlik, bosh kelishik formasidagi tugallanmasiga qarab turlanishning 3 turiga bo'linadi. Qoraqalpoq tilida esa otlar turlanishida juwan va jin'ishke ekanligiga qarab farq qiladi. Shunga qarab kelishik affikslari ham 2 variantda *juwan* va *jin'ishke* affikslar bo'lib, *juwan* asosga *juwan* variantdagi affiks, *jin'ishke* asosga *jin'ishke* variantdagi affiks qo'shiladi. O'zbek tilidagi otlarda kelishik affikslari **turlovchi affikslar** deb ham yuritiladi. Otlarning kelishiklar bilan o'zgarishi **turlanish** deb nomlanadi. Kelishik affiksi yo'q holat bosh kelishik hisoblanadi. Bunday kelishikdagi ot odatda, boshqa so'zni o'ziga tobelaydi: Saida, kitob, Buxoro kabi. Qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklaridagi otlar gapda boshqa so'zlarga grammatik jihatdan tobe bo'ladi¹. Bu kelishiklar *vositali kelishiklar* deyiladi: Pokiza aql insonni ayb va kamchiliklardan qutqaradi (U.Mahkamov). Bu gada aql so'zi bosh kelishik bo'lib, affiksi bo'lmagan shaklda *qutqaradi* fe'lga nisbatan hokim holatda, *insonni* so'zi **-ni** tushum kelishigi shakli vositasida, *ayb (-dan)*, *kamchiliklardan* so'zlar **-dan** chiqish kelishigi vositasida qutqaradi fe'lga tobe bo'lib kelgan. O'zbek tilida turlanishni jadval asosida ko'rib chiqamiz.

Kelishiklar:	Turlanishi (Birlik son)
Bosh	maktab, uy, daftar, non, Samarqand
Qaratqich	maktabning, uyning, daftarning, nonning, Samarqandning
Jo'nalish	maktabga, uyga, daftarga, nonga, Samarqandga

¹ Hamroyev M va boshqalar. Ona tili . – Toshkent , 2007 . - B. 88.



Tushum	maktabni, uyni, daftarni, nonni, Samarqandni
Chiqish	maktabdan, uydan, daftardan, nondan, Samarqanddan
O'rin-payt	maktabga, uyga, daftarga, nonga, Samarqandga

Rus tilida otlarning turlanishi 3 xil turga bo'linadi.

1 tur turlanishiga birlik, bosh kelishikda **-a** yoki **-я** bilan tugagan женский rod otlari kiradi: мама, девочка, няня, школа kabi.

2-tur turlanishiga negizi qattiq yoki yumshoq undosh bilan tugagan мужской rod otlari va **-о**, **-е** bilan tugagan средний rod otlari kiradi: город, студент, озеро, море, поле kabi.

3-tur turlanishiga negizi yumshoq undosh bilan tugagan jenskiy rod otlari kiradi: тетрадь, площадь, степь, область kabi. Turlanishning qaysi turiga kirishiga qarab, otning jonli predmetni yoki jonsiz predmetni atashiga qarab turli tugallanma qo'shiladi². Buni quyida jadval asosida ko'rib chiqamiz.

Otlarning birlik turlanish jadvali

Kelishiklar	1-turlanish		2-turlanish				3-turlanish
	Qattiq turlanish	Yumshoq turlanish	Qattiq turlanish		Yumshoq turlanish		
	Женский род	Женский род	Мужской род	Средний род	Мужской род	Средний род	Женский род
И. п (В. к)	стран-а	земл-я	стол	мест-о	конь	пол-е	область
Р. п (Q. к)	стран-ы	земл-и	стол-а	мест-а	кон-я	пол-я	област-и
Д. п (J. к)	стран-е	земл-е	стол-у	мест-у	кон-ю	пол-ю	област-и
Т. п (Т. к)	стран-у	земл-ю	стол	мест-о	кон-я	пол-е	область
Тв. п	стран-ой	земл-ей	стол-ом	мест-ом	кон-ём	пол-ем	область-ю
Пр. п	о стран-е	о земл-е	о стол-е	о мест-е	о кон-е	о пол-е	об области

Otlarning ko'plik turlanish jadvali

Kelishiklar	Qattiq turlanish	Yumshoq turlanish
И.п (В.к)	школы, заводы, леса, места	земли, песни, моря, дожди
Р. п (Q.к)	школ, заводов, лесов, мест	земель, песен, морей, дождей
Д. п (J.к)	школам, заводам, лесам, местам	землям, песням, морям, дождям
В. п (Т.к)	школы, заводы, леса, места	земли, песни, моря, дожди
Тв. п	школами, заводами, лесами, местами	землями, песнями, морями, дождями,
Пр. п	(о) школах, заводах, лесах, местах	(о) землях, песнях, морях, дождях

² Azizov O va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. – Toshkent, 1965. - B.26.



Qoraqalpoq tilida kelishik affikslari asosning keyin tovushiga uyg'unlashib qo'shiladi. Turlanishda birlik va ko'plik orasida rus tilidagidek o'zgarish kuzatilmaydi. Qoraqalpoq tilida turlanmaydigan ot so'z yoq. Hamma ot so'zlar turlanadi³. Quyida jadval asosida ko'rib chiqamiz.

Seplikler	Juwan sepleniw	Jin'ishke sepleniw
Ataw (B.k)	qol, kitap, adam	ko'l, ertek, tiken
Iyelik (Q.k)	qoldin', kitaptin', adamnin	ko'ldin', ertehtin', tikennin'.
Baris (J.k)	qolg'a, kitapqa, adamg'a	ko'lge, ertekke, tikenge
Tabis (T.k)	qoldi, kitapti, adamdi	ko'ldi, ertekti, tikendi
Shig'is (Ch.k)	qoldan, kitaptan, adamnan	ko'lden, ertekten, tikennen
Orin (O.k)	qolda, kitapta, adamda.	ko'lde, ertekte, tikende

Bunday turlanish qoraqalpoq tilida **jay sepleniw** deb nomlanadi. Biz hozir jadvalda *juwan* va *jin'ishke* turlanishni faqat birlik sonda ko'rib chiqdik. Ko'plik sonda turlansa ham uncha katta o'zgarish kuzatilmaydi. Ko'plik sonda *juwan* turlanishdagi so'zlarga **-lar** ko'plik qo'shimchasi, jin'ishke turlanishdagi so'zlarga esa **-ler** ko'plik qo'shimchasi qo'shilib aytiladi va shunday yoziladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har 3 tilda turlanish mavjud bo'lib, ular bir-biridan juda katta farq bilan ajralib turadi. Jumladan, o'zbek tilida otlar 6ta kelishikda birlik va ko'plik sonda turlanadi. Rus tilida otlar 3 xil turda turlanadi. Ular har bir rodning qattiq va yumshoq turlanishiga, birlik va ko'plik sonda bo'lishiga, bosh kelishikning tugallanmasiga ko'ra farqlanadi. Qoraqalpoq tilida turlanishning asosiy 2 turi mavjud. Bular *juwan* va *jin'ishke* turlanish deb yuritiladi. *Juwan* va *jin'ishke* atamaları fonetikaning unli tovushlar tizimida bo'lingan. *Juwan* unli tovushlariga: **a, o, u, i** tovushlari, *jin'ishke* unli tovushlarga ega esa, **a', o', u', i, e** tovushlari kiradi. Shunga ko'ra otlardagi turlanishlar ham otlarning qanday unli tovushda kelishiga qarab bo'lingan. Ko'plik sonda turlanishida o'zbek tilida farq sezilmaydi, rus tilida esa ancha farq bor, qoraqalpoq tilida ham *juwan* va *jin'ishke* unli tovushlarni ajrata olgan odamga farq sezilmaydi deb o'ylayman. Bularning hammasi o'z navbatida tillarning rang barangligini, aniqligini ko'rsatib turadi.

References:

1. Azizov O va boshqalar O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent, 1965.
2. Bekbergenov A. Rus ha'm qaraqalpaq tillerinin' salıstırmalı grammatikasi. No'kis. 1995.
3. Hamroyev M va boshqalar. Ona tili. – Toshkent, 2007.

³ Bekbergenov A. Rus ha'm qaraqalpaq tillerinin' salıstırmalı grammatikasi. No'kis. 1995. – B.55.